

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 32 933,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 9,1 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 106,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,1 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





2026- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	28 354,2	32 933,3	109,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	27 844,4	32 294,9	109,0
mahsulotlarga sof soliqlar	509,8	638,4	112,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	27 844,4	32 294,9	109,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7 180,3	7 705,4	104,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 176,2	8 589,4	113,7
sanoat	4 407,9	5 059,8	108,5
qurilish	2 768,3	3 529,6	122,0
xizmatlar	13 487,9	16 000,1	109,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 261,7	6 228,5	110,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 040,6	2 649,1	120,7
boshqa xizmat tarmoqlari	6 185,6	7 122,5	103,6





YALPI HUDUDIIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

3

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 15 876,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 7,2 % ga yuqoridir.

**2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM hajmi**
(ming so'mda)



**2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





YALPI HUDUDY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

4

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,2	98,1
mahsulotlarga sof soliqlar	1,8	1,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	25,8	23,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	25,7	26,6
sanoat	15,8	15,7
qurilish	9,9	10,9
xizmatlar	48,5	49,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18,9	19,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,3	8,2
boshqa xizmat tarmoqlari	22,3	22,0



2026- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 23,9 % ni, sanoat tarmog'i 15,7 % ni, qurilish 10,9 % ni va xizmatlar sohasi 49,5 % ni tashkil aildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)






YALPI HUDUDY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

6

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunda – 1,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunda – 1,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 2,2 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunda – 1,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,3 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunda – 3,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)






YALPI HUDUDY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

7

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 23,9 %), sanoatda – 108,5 % (15,7 %), qurilishda – 122,0 % (10,9 %), xizmatlar sohasida – 109,1 % ni (49,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,9 % (19,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 120,7 % (8,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,6 % dan (22,0 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)






YALPI HUDUDY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

8

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 106,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda -108,8 %, sanoatda – 105,8 % qayd etildi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 22 351,3 mlrd. so'mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – 19 634,0 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 69,2 % ni (2025- yilning yanvar-iyun oylarida -70,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

